TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 24-oktabr | 290-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi “Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 616-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 710-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi “Ajratilgan mintaqa va muhofaza zonalari chegaralarida temir yo‘l transporti yerlarining o‘lchamini belgilash hamda ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 616-sonli qarori ijrosi yzasidan Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi 710-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14 oktabrdagi 710-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Ilovaga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 616-sonli qarori bilan ajratilgan mintaqa va muhofaza zonalari chegaralarida temir yo‘l transporti yerlarining o‘lchamini belgilash hamda ulardan foydalanish tartibi:

ajratilgan mintaqa chegaralarida temir yo‘l transporti yerlaridan foydalanish va ularni saqlash;

temir yo‘l transporti yerlariga chegaradosh bo‘lgan muhofaza zonasi yerlari o‘lchami va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda muhofaza zonalaridagi yerlar bo‘yicha qonunchilik hujjatlari talablariga zid foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik, yuridik va jismoniy shaxslarning yer maydonlariga bo‘lgan huquqlarini belgilovchi hujjatlarni chiqarishga taklif kiritmaslik va boshqa qonun buzilishi holatlarining oldini olish choralarini ko‘rib borsin.
4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinborasi S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 24-oktabrdagi
290-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-sentabrdagi 616-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan Ajratilgan mintaqa va muhofaza zonalari chegaralarida temir yo‘l transporti yerlarining o‘lchamini belgilash hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom ajratilgan mintaqa va muhofaza zonalari chegaralaridagi temir yo‘l transporti yerlarining o‘lchamini belgilash hamda ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ajratilgan mintaqa — temir yo‘lga yaqin joylashgan, temir yo‘l bilan band bo‘lgan yoki bunday yo‘llarni joylashtirish uchun mo‘ljallangan, shuningdek, temir yo‘l stansiyalarini, suv ketkazish va mustahkamlash moslamalarini, temir yo‘l bo‘ylab himoya chiziqlarini, aloqa liniyalarini, elektr ta’minoti moslamalarini, harbiy yuklarni ortish-tushirish joylarini, ishlab chiqarishga oid boshqa binolarni, imoratlar, inshootlar va temir yo‘l transportining boshqa obyektlarini joylashtirish uchun mo‘ljallangan yer maydonlari;

muhofaza zonalari — ajratilgan mintaqaga ikki tomondan tutash bo‘lgan va chegaralarida aholi, temir yo‘l transporti xodimlari, yo‘lovchilar, hayvonlar va boshqa transport vositalari xavfsizligini, shuningdek, temir yo‘llardan, elektr ta’minoti va aloqa tarmoqlaridan xavfsiz foydalanishni, temir yo‘l transporti inshootlari, qurilmalari va boshqa obyektlari, shu jumladan, tuproq siljishiga, qum ko‘chishiga va boshqa zararli tabiiy ta’sirlarga moyil bo‘lgan hududlardagi obyektlar saqlanishi, mustahkamligi hamda turg‘unligini ta’minlash maqsadida yer maydonlaridan foydalanishning maxsus rejimi o‘rnatilgan hududlar;

umumiy foydalanishda bo‘lmagan temir yo‘llar — yukni jo‘natuvchilarga (jo‘natuvchilarga) va yukni oluvchilarga (oluvchilarga) shartnoma shartlari asosida xizmat ko‘rsatish yoki egalik qiluvchining o‘z ehtiyojlari uchun texnologik ishlarni bajarishga mo‘ljallangan umumiy foydalanishdagi temir yo‘llarga bevosita yoki boshqa temir yo‘l shoxobcha yo‘llari orqali tutashadigan shoxobcha temir yo‘llar, shuningdek, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llarga tutashmaydigan temir yo‘llar;**umumiy**

foydalanishdagi temir yo‘l transporti infratuzilmasi — texnologik majmua bo‘lib, u ushbu majmua faoliyatini ta’minlovchi temir yo‘llarni, temir yo‘l stansiyalarini, elektr ta’minoti qurilmalarini, aloqa tarmoqlarini, signalizatsiya, markazlashtirish va bloklash tizimlarini, axborot majmualarini, harakatni boshqarish tizimini, binolar, inshootlar, qurilmalar, jihozlar va uskunalarni o‘z ichiga oladi;

umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti infratuzilmasining operatori (keyingi o‘rinlarda — infratuzilma operatori) — umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti sohasidagi vakolatli tashkilotga tegishli bo‘lgan, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llarning va umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti infratuzilmasi boshqa obyektlaridan foydalanishni, ularning joriy saqlanishini va modernizatsiyasini, qurilishini amalga oshiradigan, shuningdek, infratuzilmadan foydalanish xizmatlarini, shu jumladan, harakatdagi tarkibni o‘tkazish va olib o‘tish uchun umumiy foydalanishdagi temir yo‘llardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatadigan yuridik shaxs.

2-bob. Ajratilgan mintaqa chegaralarida temir yo‘l transporti yerlaridan foydalanish va ularni saqlash tartibi

3. Temir yo‘l transportiga ajratilgan mintaqa chegaralarini belgilashda infratuzilma operatori yoki umumiy foydalanishda bo‘lmagan temir yo‘llar egasi O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, “Davlat yer kadastri to‘g‘risida”gi qonuni va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq tegishli yer tuzish (kadastr) ishlari bajarilishini ta’minlaydi.

4. Temir yo‘l transportiga ajratilgan mintaqa chegaralarini kadastr hisobiga olish hamda ajratilgan mintaqa o‘lchamlarini o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastri to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 30-iyundagi 152-son qarori bilan tasdiqlangan Temir yo‘llar davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Temir yo‘l transportiga ajratilgan mintaqa doirasidagi yer maydonlari chegaralari yer ajratish me’yorlariga, loyiha-smeta va shaharsozlik hujjatlariga (hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to‘g‘risidagi hamda ularni qurish haqidagi hujjatlar), umumiy foydalanishdagi temir yo‘l infratuzilmasi yoki temir yo‘l shoxobcha yo‘llarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish bosh tariflariga muvofiq bo‘lishi lozim.

Temir yo‘l transportiga ajratilgan mintaqa doirasidagi yer maydonlari maxsus chegaralovchi belgilangan namunadagi marza belgilari bilan ajratiladi.

6. Ajratilgan mintaqa kengligini belgilashda shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq quyidagilar hisobga olinishi lozim:

yer ko‘tarmasining konfiguratsiyasi (ko‘ndalang kesimi);

sun’iy inshootlar o‘lchamlari;

mahalliy yer relyefi;

alohida ob-havo sharoitlari (jarliklar paydo bo‘lish zonalarida, qor ko‘chkisiga (o‘pirilishiga), ko‘chki, suv toshishi, sel oqimlari, jarliklar, karstlar vujudga kelishiga va boshqa xavfli geologik ta’sirlarga moyil joylarda joylashgan yo‘l uchastkalari);

yo‘llarni qor yoki tuproq ko‘chkisidan himoya qilish zarurati.

Ajratilgan mintaqa kengligi stansiyalar oralig‘ida (peregonda) 10 metrdan 29 metrgacha bo‘lgan masofada belgilanadi. Bunda ajratilgan mintaqa kengligi temir yo‘lning qor ko‘chkisidan himoya qilish inshootlari, to‘g‘onlar, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa maxsus himoya vositalari talab etiladigan joylarda ushbu qurilmalarning joylashishini hisobga olgan holda belgilanadi.

7. Temir yo‘l transporti yerlariga tegishli bo‘lgan, harakat xavfsizligini ta’minlash va undan foydalanishga mo‘ljallangan temir yo‘l transporti obyektlari bilan band bo‘lmagan ajratilgan mintaqa yer maydonlari (ularning qismlari)dan:

yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish;

yuklarni omborlarga joylashtirish;

ortish-tushirish maydonchalarini joylashtirish;

temir yo‘l shoxobcha yo‘llarini ulash;

temir yo‘l bo‘yidagi omborlarni (yoqilg‘i-moylash materiallari ombori va avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari, shuningdek, xavfli moddalar hamda materiallarni saqlash uchun mo‘ljallangan omborlar bundan mustasno) qurish uchun foydalanish mumkin.

8. Ajratilgan mintaqa chegaralarida yer maydonlaridan foydalanishda quyidagi talablarda rioya qilish lozim:

a) yer maydonlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanish;

b) quyidagilarga:

temir yo‘lda ko‘rinishning yomonlashishiga olib keluvchi, harakat xavfsizligiga hamda temir yo‘l transportidan foydalanishga tahdid soluvchi binolar va inshootlar, ko‘p yillik ekinlarni joylashtirishga;

tog‘li hududlarda qum-tosh jinslari va tuproq massalari to‘planishiga; muhandislik kommunikatsiyalari joylashgan joylarda temir yo‘l transportidan foydalanish va harakat xavfsizligiga tahdid soladigan bino va inshootlarni qurish hamda joylashtirishga;

ichimlik va oqova suv tarmoqlari hamda inshootlari joylashgan joylarda qishloq xo‘jaligi ishlarini amalga oshirishga;

qishloq xo‘jaligi yerlariga tutash joylarda begona o‘tlar va daraxtbutalarning o‘sib ko‘payib ketishiga;

o‘rmon hududlariga tutash joylarda qurib qolgan daraxtlar, shoxshabbalar, kesilgan yog‘och qoldiqlari va yonuvchan materiallar to‘planishiga;

atrof tabiiy muhit ishlab chiqarish chiqindilari va temir yo‘l transporti ishlab chiqarish faoliyatining boshqa chiqindilari bilan ifloslanishiga, yerlar axlat uyumlari bilan to‘lishi hamda botqoqlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

v) ajratilgan mintaqa chegarasini tabiiy o‘rmon yoqasidan eni 3 metrdan 5 metrgacha bo‘lgan yong‘inning oldini oluvchi to‘siq yoki eni 3 metrdan kam bo‘lmagan minerallashtirilgan uchastka bilan ajratish;

g) yerni eroziya va degradatsiyadan himoya qilish choralarini ko‘rish, yerni noqulay tabiat hodisalaridan himoya etish bo‘yicha o‘rmon melioratsiyasi, yong‘inning oldini olish va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

d) yerdan, suvdan va yer osti boyliklaridan foydalanishning belgilangan tartibini buzmaslik.

9. Ajratilgan mintaqa chegarasida temir yo‘l transporti yer uchastkalaridan cheklangan holda foydalanish huquqi (servitut) — temir yo‘llarni kesib o‘tuvchi yoki ularga yaqin joyda joylashgan quyidagi obyektlarni joylashtirish (yotqizish), qurish va foydalanish uchun belgilanishi mumkin:

muhandislik kommunikatsiyalari;

yo‘l o‘tkazgichlar;

temir yo‘l kesishmalari;

aloqa va elektr uzatish liniyalari;

quvur liniyalari;

neft va gaz quvurlari;

irrigatsiya liniyalari, shuningdek, drenaj ishlari.

Servitut uni talab etuvchi ko‘rsatib o‘tilgan inshootlar mulkdori bilan infratuzilma operatori yoki umumiy foydalanishda bo‘lmagan temir yo‘llar egasi o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga asosan belgilanadi.

Ajratilgan mintaqa chegarasida ushbu bandda ko‘rsatilgan obyektlardan foydalanish xavfsizligiga ularning egalari mas’uldirlar. Mazkur inshootlar egalari harakat xavfsizligiga tahdid soladigan avariya hodisalari yuzaga kelganligi to‘g‘risida infratuzilma operatori yoki umumiy foydalanishda bo‘lmagan temir yo‘llar egasiga o‘z vaqtida xabar berishi shart.

10. Ajratilgan mintaqa chegaralaridagi temir yo‘l transporti infratuzilmasi obyektlarida belgilangan tartibda tashqi reklama obyektlari joylashtirilishi mumkin.

Bunda tashqi reklama obyektlari O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni hamda tashqi reklama to‘g‘risidagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lishi hamda temir yo‘l transportidan foydalanishga va harakat xavfsizligiga tahdid solmasligi, ko‘rishni yomonlashtirmasligi hamda temir yo‘l transporti obyektlarining ekologik tozaligini buzmasligi lozim.

3-bob. Temir yo‘l transporti yerlariga chegaradosh bo‘lgan muhofaza zonasi yerlari o‘lchami va ulardan foydalanish tartibi

11. Muhofaza zonalari aholi xavfsizligini, temir yo‘l liniyalari, elektr ta’minoti va aloqa liniyalaridan xavfsiz foydalanish, umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti infratuzilmasi obyektlari, shu jumladan, siljuvchi tuproqli hududlarda hamda qor va qum uyumlari to‘planishiga va boshqa zararli ta’sirlarga molik bo‘lgan hududlarda joylashgan obyektlar soz holda saqlanishi, mustahkamligi va barqarorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

12. Muhofaza zonalari chegaralaridagi yer uchastkalari yer, shaharsozlik va ekologiya to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Muhofaza zonalarini belgilash zarurati ularning o‘lchamlari va chegaralari, ular doirasida yerdan foydalanishda yer ko‘tarmasi hamda temir yo‘l transporti sun’iy inshootlariga salbiy ta’sirlarning oldini olish uchun yer ko‘tarmasini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash loyihalarida hisobga olinadi.

Bunda fizik-geografik, tuproqqa oid, gidrologik va boshqa tabiiy sharoitlarni, shuningdek, aholi punktlaridagi uy-joylarni o‘tayotgan poyezdlarning me’yordan ortiq shovqinidan, yonuvchan, portlovchi va xavfli yuklarni tashishda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan halokatlardan himoya qilish zaruratini inobatga olish lozim.

13. Quyidagi joylarda temir yo‘l muhofaza zonalari chegaralari belgilanadi:

a) aholi punktlarida va ularning bevosita yaqinida;

b) qor ko‘chkisi, o‘pirilish, suv toshishi, sel oqimlari, jarliklar, karstlar vujudga kelishiga va boshqa xavfli geologik ta’sirlarga moyil joylarda;

v) harakatlanuvchi qumli maydonlarda;

g) himoya o‘rmonzorlari vazifasini bajaruvchi o‘rmonlar, jumladan, daryo qayirlari va yer usti suv obyektlari bo‘ylab joylashgan o‘rmonlarda;

d) daraxtlarni kesib tashlash oqibatida tog‘lar qiyaliklari hamda tepaliklarning barqarorligiga ta’sir ko‘rsatishi va o‘pirilish, tosh ko‘chishi,

jarliklar paydo bo‘lishiga olib kelishi yoki sel oqimlari hamda qor ko‘chkisi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan, temir yo‘llarning butunligi, barqarorligi va mustahkamligiga ta’sir ko‘rsatadigan o‘rmonlarda.

14. Temir yo‘l transportidan foydalanish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida muhofaza zonalarida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi: binolar, imoratlar va inshootlarni qurish, daraxt ko‘chatlarini, mevali daraxtlarni ekish, muhandislik-kommunikatsiyalarini qurish, vaqtincha yo‘llarni joylashtirish, daraxt va buta o‘simliklarini kesish, chim qoplamini olib tashlash, qiyaliklar barqarorligini yomonlashtirishi mumkin bo‘lgan yer ishlarini amalga oshirish;

qum ko‘chadigan joylardagi muhofaza zonalari chegaralarida tabiiy tuproq qoplamasini o‘zgartirish, qurigan o‘tlarni yoqish, transport vositalarining harakatlanishi;

yerlarni shudgor qilish, polizlar barpo etish;

chorva mollarini o‘tlatish;

yer usti va xo‘jalik-maishiy suvlarni oqizish.

15. Aholi punktlarida va ularning bevosita yaqinida muhofaza zonalari har ikki tomondan, temir yo‘l chekka izi o‘qidan 100 metrdan kam bo‘lmagan masofada belgilanadi.

Aholi punktlarida, aholi punktlararo hududlarida muhofaza zonalari hamda ulardan foydalanish maqsadlari va tartiblari hududlarni hamda aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to‘g‘risida hamda ularni qurish haqidagi tasdiqlangan hujjatlarda belgilanadi.

16. Qum ko‘chadigan joylarda muhofaza zonalari temir yo‘l o‘qining har ikki tomonidan, ajratilgan mintaqani hisobga olgan holda, 500 metrdan kam bo‘lmagan masofada belgilanadi.

17. Ko‘tarma temir yo‘l o‘qidan ihota daraxtzorlarigacha bo‘lgan masofa 15 metrdan kam bo‘lmagan uzunlikda belgilanadi. Asosiy yo‘llarda esa bu masofa ikkinchi yo‘l qurish mo‘ljallangan tomonga qarab 20 metrgacha uzaytiriladi.

O‘yiqliklarning roshidan, shuningdek, suvlarni oqizib ketuvchi ariqlar (mavjud bo‘lgan taqdirda) roshidan ihota daraxtzorlarigacha bo‘lgan masofa 5 metrdan kam bo‘lmagan uzunlikda belgilanadi. Asosiy yo‘llarda esa, bu masofa ikkinchi yo‘l qurish mo‘ljallangan tomonga qarab 10 metrgacha uzaytiriladi. Bunda har qanday hollarda temir yo‘l chekka izi o‘qidan ihota daraxtzorlarigacha bo‘lgan masofa 15 metrdan kam bo‘lmasligi lozim. Agar 15 metr masofada elektr uzatish tarmog‘i bo‘lsa, uning muhofaza zonalari ham hisobga olinishi kerak.

O‘rmon fondi yerlaridagi muhofaza zonalarida daraxtlarni parvarishlash, sanitariya va o‘rmonni qayta tiklash maqsadlaridan tashqari yoppasiga kesishga yo‘l qo‘yilmaydi.

18. Daryo qayirlari, ko‘llar va suv omborlari bo‘yidagi muhofaza zonalarida temir yo‘l ko‘tarmasi qiyaliklarini hamda ko‘priklar yonidagi suvni tartibga soluvchi inshootlar yuvilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida chorva mollarini o‘tlatish, himoya daraxtzorlari va butazorlarni kesish taqiqlanadi.

19. Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlari muhofaza zonasi temir yo‘llarning ajratilgan mintaqa va (yoki) muhofaza zonalarini kesib o‘tganda, ularning o‘lchamlari Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1050-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalariga muvofiq belgilanadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

20. Temir yo‘l transporti yerlari O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarori bilan tasdiqlangan Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamenti bilan belgilangan tartibda ajratiladi.

21. Ushbu Nizom talablarini qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

22. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.